

O'zbekiston Respublikasidagi kichik biznes faolyatida qurilish sohasining ulushi va uning tahlili

Azizzon Qodirjon o'g'li Ergashev
azizzxone17@gmail.com

Muhammadsodiq Rustamjon o'g'li Siddiqov
muhammadsodiqsiddiqon8@gmail.com

Rahmonjon Baxtiyorjon o'g'li Muhammadjonov
abdurahmon1804@gmail.ru

Qo'qon universiteti

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi va mamlakat iqtisodiyotida qurilish sohasida kichik biznesdagi ulushi va qurilish sohasining tahlili bayon qilingan hamda u mualliflar xulosasi orqali yakunlangan.

Kalit so'zlar: Qurilish sohasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya, shaharsozlik subyektlari, qurilish industriyasi, arxitektura.

The share of the construction industry in small business activity in the Republic of Uzbekistan and its analysis

Azizkhan Kadirjan oglu Ergashev
azizzxone17@gmail.com

Muhammadsadiq Rustamjon oglu Siddiqov
muhammadsodiqsiddiqon8@gmail.com

Rahmonjon Bakhtiyorjon oglu Muhammadjanov
abdurahmon1804@gmail.ru

Kokand University

Abstract: This thesis describes the share of small business in the construction sector and the analysis of the construction sector in the economy of the Republic of Uzbekistan and the country, and it is concluded by the conclusion of the authors.

Keywords: Construction industry, socio-economic development, investment, urban planning subjects, construction industry, architecture.

Bugungi kunda, yangi sanoatlashgan hamda rivojlanib borayotkan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanadi. Turli davlatlarda kichik biznes faolyatlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi,


aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalilanildi. Masalan: O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xuxusiy tadbirkorlikning faolyatlarini aniqlashda korxonada ishlovchi xodimlar soni mezon qilib olingan. Kichik biznesga, mulk shaklidan qat'iy nazar, yiliga sanoat korxonalarida o'rta hisobda 10 nafargacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha ish bilan band hodimga ega bo'lgan mikrofirmalar, ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rta hisobda 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida 20 nafargacha, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan kichik korxonalar kiradi.

Xususan, qurilish sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining moddiy-texnik bazasini yaratish va aholining shinam uy-joyga, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, madaniy hordiq chiqarishda muhim o'rin tutadi. Qurilish sohasidagi davlat siyosati mamlakatimizni, hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash maqsadida innovatsiyalar, investitsiyalar, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarmoq salohiyatini oshirishga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.05.2015 yildagi PF-4725-son), "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'lab quvvatlash jamg'armasi faolyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.03.2016 yildagi PQ-2507-son) kabi qaror va farmonlari Respublikada kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotgani hamda uni rivojlantirish ustida ko'plab e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotganining yaqqol na'munasidir.

O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasidagi ulushi (foiz va so'mda)

| Indicators | Construction (in percent) | Construction (billion soums) |
|------------|---------------------------|------------------------------|
| 2007 | 55,4 | 1514,2 |
| 2008 | 58,4 | 2090,0 |
| 2009 | 42,4 | 2996,0 |
| 2010 | 52,5 | 4163,2 |
| 2011 | 67,6 | 6188,3 |
| 2012 | 70,0 | 7925,5 |
| 2013 | 70,6 | 10377,7 |
| 2014 | 69,5 | 13944,9 |
| 2015 | 66,7 | 16954,0 |
| 2016 | 66,9 | 19671,0 |
| 2017 | 64,8 | 22469,4 |
| 2018 | 73,2 | 37451,7 |
| 2019 | 75,8 | 53960,9 |
| 2020 | 72,5 | 63866,6 |

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasining kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning qurilish sohasidagi ulushi, 2007 - 2020 yillar oralig‘ida taqriban 55 - 72 foizga o‘siganligini ko‘rish mumkin. Boshqa tomondan qaralganda, 2019 yilgi COVID-2019 pandemiyasining ta’siri tufayli deyarli barcha Davlat hududlarida qurilish surati bir oz pasayganligi e’tiborga molikdir. Yuqoridagi qaror va farmonlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu pandemiya holati Mamlakatimizdagi qurilish sanoatiga juda yuqori salbiy ta’sir ko‘rsata olmagan. Kichik biznesning Mamlakat qurilish sanoatidagi ulushini esa ikkinchi jadvalga asosan quyidagicha tahlil qilinishi mumkin. Qurilish sanoatida kichik biznesning ulushi 2007 yildan 2017 yilgacha shiddat bilan o‘smagan bo‘lsa ham, barqaror o‘rtacha 22000 million. so‘m miqdoridagi o‘sish holatlari kuzatilgan. 2018-2020 yillar oralig‘ida esa jadal suratlar bilan o‘sish holatini kuzatish mumkin.



Yuqoridagi diogramada aniq ko‘rsatib o‘tilgan, 2007 - 2020 yilgacha taqriban 63000 milliongacha o‘siganligini ko‘rshimiz mumkin. 2019 yilgi COVID-2019 pandemiyasining qurilish sohasini foizda tushkan bo‘lsa so‘mda ko‘tarilganligini ko‘rshimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasidagi qurilish sanoatida kichik biznesning ulushi yil sayin ortib bormoqda hamda bu ijobiy natija barqaror davom etishi orqali qurilish sanoatini yanada yuqoriqoq bosqichlarga olib chiqish ishlari uzlucksiz olib borilmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan tarmoqda so‘ngi 10 yillikdagi ko‘rsatkichlari orqali o‘z isbotini topmoqda. Kichik biznes sohasida moslashuvchanlik jarayoni o‘rta va yirik bizneslarga qaraganda bir muncha oson bo‘lganligi sababli, COVID-2019 pandemiyasi davrida ham bu tarmoqda o‘sishga erishilganligini kuzatish mumkin.

Foydalilanigan adabyotlar

1. Boltayeva, Mohicehxra. "YANGI O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB QUVVATLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHHLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
2. Abbosxon Y., Boburmirzo X. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI //E Conference Zone. –2022. –C. 168-170.
3. Rustamov Muhamadazizzon & Mashrabov Muhammad Yusuf. (2022) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING AHOLI BANDLIGIDAGI ULUSHI.
4. Ismailov, Dilshod Anvarjanovich, and Oybek Utbasarov. "KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK." Scientific progress 2.7 (2021): 223-229.